AKADEMIK LITSEY O‘QUVCHILARINING MUSTAQIL ISHLASH KOMPETENSIYASI: MOHIYATI, TARKIBIY TUZILISHI VA ELEKTRON TA’LIM MUHITIDAGI O‘ZIGA XOSLIGI

КОМПЕТЕНЦИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ УЧАЩИХСЯ АКАДЕМИЧЕСКОГО ЛИЦЕЯ: СУЩНОСТЬ, СТРУКТУРА И ОСОБЕННОСТИ В ЭЛЕКТРОННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

INDEPENDENT WORK COMPETENCE OF ACADEMIC LYCEUM STUDENTS: ESSENCE, STRUCTURE AND SPECIFIC FEATURES IN THE E-LEARNING ENVIRONMENT

Artikov Farxod Sayfiddinovich
O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada akademik litsey o‘quvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyasi mohiyati, tarkibiy tuzilishi va elektron ta’lim muhitidagi o‘ziga xos namoyon bo‘lishi nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi raqamli ta’lim sharoitida o‘quvchidan o‘z ta’lim faoliyatini mustaqil rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish va baholash talab etilishi bilan belgilanadi. Maqolada “mustaqil ish”, “mustaqil ta’lim” va “mustaqil ishlash kompetensiyasi” tushunchalari qiyosiy tahlil qilinib, ularning mazmuni, hajmi hamda pedagogik vazifalari o‘rtasidagi farq asoslanadi. Kompetensiyaning nazariy asoslari sifatida o‘zini o‘zi boshqaruvchi o‘qish nazariyasi, o‘z-o‘zini yo‘naltiruvchi o‘qish konsepsiyasi, madaniy-tarixiy va faoliyat yondashuvi, metakognitsiya nazariyasi, kognitiv yuklama hamda multimedia orqali o‘rganish tamoyillari, tranzaksion masofa nazariyasi va tadqiqot hamjamiyati modeli ko‘rib chiqiladi.

Аннотация. В данной статье теоретически анализируются сущность, структурная структура и специфическое проявление компетенции самостоятельной работы учащихся академических лицеев в электронной среде обучения. Актуальность исследования определяется тем, что в условиях цифрового образования от учащегося требуется самостоятельное планирование, организация, контроль и оценка своей учебной деятельности. В статье представлен сравнительный анализ понятий «самостоятельная работа», «самостоятельное обучение» и «компетенция самостоятельной работы», а также обосновано различие между их содержанием, масштабом и педагогическими задачами. Теоретическими основами компетенции являются теория саморегулируемого обучения, концепция самонаправленного обучения, культурно-исторический и деятельностный подход, теория метапознания, принципы познавательной нагрузки и обучения посредством мультимедиа, теория транзакционной дистанции и модель исследовательского сообщества.

Annotation. This article provides a theoretical analysis of the essence, structural composition, and specific manifestations of the "independent work competence" of students in academic lyceums within an e-learning environment. The relevance of this research stems from the fact that, in a digital educational setting, students are required to independently plan, organize, monitor, and evaluate their own learning activities. The article presents a comparative analysis of the concepts of "independent work," "independent learning," and "independent work competence," establishing the distinctions between their content, scope, and pedagogical functions. The theoretical foundations for this competence are examined through the lenses of self-regulated learning theory, the concept of self-directed learning, the cultural-historical and activity-based approaches, metacognition theory, principles of cognitive load and multimedia learning, the theory of transactional distance, and the community of inquiry model.

Kalit so‘zlar: kompetensiya, akademik litsey, elektron ta’lim muhiti, metakognitiv ko‘nikmalar, kompetensiyaviy yondashuv, mustaqil ta’lim, kognitiv yuklama, refleksiya, didaktik ta’minot.

Ключевые слова: компетентность, академический лицей, электронная среда обучения, метакогнитивные навыки, компетентностный подход, самостоятельное обучение, когнитивная нагрузка, рефлексия, дидактическая поддержка.

Keywords: competence, academic lyceum, electronic learning environment, metacognitive skills, competency-based approach, independent learning, cognitive load, reflection, didactic support.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi o‘quv jarayonining tashkiliy shakllarini, mazmunini va natijaviy ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada o‘zgartirmoqda. Elektron ta’lim muhiti o‘quvchiga o‘quv materialini o‘ziga qulay vaqtda va joyda o‘zlashtirish, ta’lim faoliyatini mustaqil rejalashtirish hamda erishilgan natijalarni kuzatib borish imkonini beradi. Bunday sharoitda o‘qituvchining vazifasi ham o‘zgaradi: u yagona axborot manbai bo‘lishdan ko‘ra ko‘proq o‘quv faoliyatini loyihalovchi, yo‘naltiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi subyektga aylanadi. Biroq bu imkoniyatlardan samarali foydalanish o‘quvchidan yuqori darajadagi mustaqillik, o‘zini tashkil eta olish va o‘z-o‘zini nazorat qilish qobiliyatini talab etadi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’lim oluvchining bilim olish, o‘z salohiyatini erkin namoyon etish va uzluksiz ta’lim olish huquqi mustahkamlangan, ta’lim jarayonining uzluksizligi hamda izchilligi asosiy tamoyillardan biri sifatida belgilangan [1]. Demak, mustaqil ishlash faoliyati bugungi ta’limda qo‘shimcha yuklama emas, balki tizim hosil qiluvchi tarkibiy qism sifatida qaraladi.

Mavzuning dolzarbligi, avvalo, davlat ta’lim siyosatining strategik yo‘nalishlari bilan izohlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan oliy ta’limni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ta’lim jarayonini raqamlashtirish, elektron o‘quv resurslari va masofaviy ta’lim texnologiyalarini keng joriy etish, ta’lim oluvchilarning mustaqil ta’lim olish salohiyatini oshirish hamda ta’lim sifatini xalqaro talablarga moslashtirish vazifalari belgilangan [2]. Konsepsiyada o‘quv jarayonida mustaqil ta’limga ajratilgan soatlar ulushini oshirish va ularning mazmunini yangilash zarurati alohida ta’kidlanadi. Ushbu vazifalar uzluksiz ta’lim tizimining oraliq bo‘g‘ini bo‘lgan akademik litseylarga ham bevosita taalluqlidir, chunki aynan shu bosqichda o‘quvchida oliy ta’limda talab etiladigan o‘quv mustaqilligining poydevori qo‘yiladi. Agar litsey bitiruvchisi mustaqil ishlash malakalarini egallamagan bo‘lsa, u universitetning kredit-modul tizimiga moslashishda jiddiy qiyinchiliklarga duch keladi.

Mustaqil ishlash kompetensiyasining kompetensiyaviy yondashuv tizimidagi o‘rni. Kompetensiya tushunchasining ilmiy muomalaga kirishi va uning shaxs muvaffaqiyatini belgilovchi omil sifatida asoslanishi J. Raven tadqiqotlari bilan bog‘liq. U kompetensiyani insonning muayyan sohada samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlovchi qobiliyatlar, motivlar va qadriyatlar majmui sifatida talqin qilib, motivatsion tarkibiy qismning yetakchi rolini alohida ta’kidlaydi [3]. Olimning fikricha, inson faqat o‘zi uchun ahamiyatli deb bilgan maqsad yo‘lida haqiqiy qobiliyatlarini namoyon etadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, o‘quvchi mustaqil ishlash usullarini bilishi mumkin, biroq ichki motiv bo‘lmasa, u bu bilimni faoliyatga ko‘chirmaydi. Shu sababli mustaqil ishlash kompetensiyasini faqat texnik ko‘nikmalar yig‘indisiga qisqartirib bo‘lmaydi va uni baholashda o‘quvchining munosabati ham hisobga olinishi lozim.

A.V. Xutorskoy kompetensiyalarni tayanch, umumpredmet va predmet darajalariga ajratib, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim paradigmasida ularning didaktik funksiyasini asoslaydi hamda o‘quvchining o‘z faoliyatini mustaqil tashkil eta olishini tayanch kompetensiyalar qatoriga kiritadi [4]. I.A. Zimnyaya esa kompetensiyani potensial, ya’ni shaxsda yashirin holda mavjud bo‘lgan imkoniyat, kompetentlikni esa uning faoliyatda namoyon bo‘lishi sifatida farqlaydi va shaxsning o‘z-o‘zini boshqarishga oid kompetensiyalarini alohida guruhga ajratadi [5].

Mustaqil ishlash kompetensiyasining psixologik-pedagogik nazariy asoslari. Mazkur kompetensiyaning eng puxta ishlangan nazariy negizi B.J. Zimmermanning o‘zini o‘zi boshqaruvchi o‘qish nazariyasidir. Olim o‘quv faoliyatini sikl shaklida kechuvchi uch fazaga ajratadi: oldindan rejalashtirish fazasi (vazifani tahlil qilish, maqsad qo‘yish, strategiya tanlash, o‘z kuchiga ishonch va natijaga yo‘nalganlik), bajarish va o‘z-o‘zini nazorat qilish fazasi (diqqatni jamlash, tanlangan strategiyani qo‘llash, o‘z harakatlarini kuzatib borish) hamda refleksiya fazasi (o‘z-o‘zini baholash,

natija sabablarini izohlash, qoniqish hissi va keyingi siklga tuzatish kiritish) [6]. Bu nazariyaning didaktik qimmati shundaki, u mustaqil ishlashni tug‘ma qobiliyat emas, balki o‘rgatilishi va bosqichma-bosqich shakllantirilishi mumkin bo‘lgan operatsiyalar tizimi sifatida ko‘rsatadi.

M. Knowlsning o‘z-o‘zini yo‘naltiruvchi o‘qish konsepsiyasi mustaqillikni faoliyatning ichki mexanizmi emas, balki o‘quvchining o‘quv jarayonini boshqarishdagi ulushi tomonidan tavsiflaydi. Unga ko‘ra, o‘quvchi o‘z ta’limiy ehtiyojini aniqlash, maqsadlarni shakllantirish, resurslarni tanlash, mos strategiyani qo‘llash va natijalarni baholash mas’uliyatini bosqichma-bosqich o‘z zimmasiga oladi [7]. Muallif bunday o‘qishni yetuk shaxsga xos xususiyat sifatida talqin qiladi va uni qo‘llab-quvvatlashda o‘qituvchi maslahatchi hamda resurs manbai vazifasini bajarishini ta’kidlaydi. Akademik litsey sharoitida bu jarayon to‘liq amalga oshmaydi, chunki o‘quvchi hali shakllanish bosqichidagi shaxs sifatida pedagogik yo‘llanmaga muhtoj.

L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasi mustaqillikning shakllanish mexanizmini tushuntirib beradi. Yaqin rivojlanish zonasi konsepsiyasiga ko‘ra, o‘quvchi bugun kattalar yordami bilan bajaradigan ish ertaga uning mustaqil faoliyatiga aylanadi, oliy psixik funksiyalar esa avval tashqi, birgalikdagi va nutq bilan vositalangan faoliyatda yuzaga kelib, so‘ngra interiorizatsiya jarayoni orqali ichki tekislikka o‘tadi [8]. Bu qoida mustaqil ishlash kompetensiyasi o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmasligini, balki o‘qituvchi va tengdoshlar bilan birgalikdagi faoliyatdan kelib chiqishini ko‘rsatadi. Dastlab tashqi ko‘rsatma sifatida berilgan reja, savol va mezonlar vaqt o‘tishi bilan o‘quvchining ichki o‘z-o‘ziga murojaatiga aylanadi. Amaliy jihatdan bu pedagogik yordamni asta-sekin kamaytirib borish, ya’ni bosqichma-bosqich mustaqillikka o‘tkazish zaruratini anglatadi.

A.N. Leontyevning faoliyat nazariyasi mustaqil ishning ichki tuzilishini tahlil qilish imkonini beradi. Nazariyaga muvofiq, har qanday faoliyat motiv bilan boshqariladi, uning tarkibida ongli maqsadga qaratilgan harakatlar va bajarilish sharoitiga bog‘liq operatsiyalar ajratiladi [9]. Motiv o‘zgarganda faoliyatning shaxsiy ma’nosi ham o‘zgaradi: bir xil topshiriq bir o‘quvchi uchun bilish vositasi, boshqasi uchun esa faqat rasmiy talabni bajarish bo‘lib qolishi mumkin. Agar o‘quvchining mustaqil ishi faqat baho olish motivi bilan boshqarilsa, faoliyat rasmiy tus oladi va o‘zlashtirilgan bilim shaxsiy ma’no kasb etmaydi. Shu sababli didaktik ta’minotni loyihalashda topshiriq mazmuni o‘quvchining bilish qiziqishi bilan bog‘lanishi, natija esa u uchun ma’noli mahsulot sifatida qabul qilinishi lozim.

R. Mayerning multimedia orqali o‘rganish tamoyillari mazkur talablarni aniq loyihaviy qoidalarga aylantiradi. Muallif matn va tasvirning bir-biriga yaqin hamda uyg‘un berilishi, ortiqcha ma’lumotlardan voz kechish, muhim jihatlarni ajratib ko‘rsatish, materialni o‘quvchi mustaqil boshqaradigan qismlarga bo‘lish hamda

tushuntirishni ovoz va tasvir kanallari o‘rtasida oqilona taqsimlash o‘zlashtirish samaradorligini oshirishini tajribalar asosida asoslaydi [12]. Bu tamoyillar mustaqil ishlash uchun ayniqsa muhim, chunki bunda o‘quvchi yonida tushuntirib beruvchi shaxs bo‘lmaydi. Materialning segmentlarga bo‘linishi esa o‘quvchiga o‘z sur’atini belgilash va faoliyatini rejalashtirish imkonini beradi. Aks holda u matnni qayta-qayta o‘qishga majbur bo‘lib, vaqtini yo‘qotadi, mustaqil ishlashga bo‘lgan motivatsiyasi esa pasayadi.

Mustaqil ishlashning masofaviy va onlayn shakllardagi o‘ziga xosligi M. Mur ilgari surgan tranzaksion masofa nazariyasi orqali izohlanadi. Nazariyaga ko‘ra, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi masofa geografik emas, balki pedagogik-kommunikativ tabiatga ega bo‘lib, u dialog, o‘quv jarayonining tuzilmaviy qat’iyligi va o‘quvchi mustaqilligi o‘rtasidagi nisbat bilan belgilanadi [13]. Dialog kuchayganda tranzaksion masofa qisqaradi, tuzilma haddan tashqari qat’iy bo‘lganda esa o‘quvchining tashabbusi va tanlov erkinligi cheklanadi. Ayni paytda tuzilmaning butunlay yo‘qligi mustaqilligi shakllanmagan o‘quvchini yo‘l yo‘qotish holatiga olib keladi. Shuning uchun mustaqilligi past bo‘lgan akademik litsey o‘quvchisi uchun kuchli dialog va o‘rtacha qat’iy tuzilma, mustaqilligi yuqori o‘quvchi uchun esa erkinroq tuzilma maqsadga muvofiqdir.

Elektron muhitda mustaqil ishlash butunlay yakka faoliyat sifatida tushunilmasligi kerak. D.R. Garrison, T. Anderson va U. Archer taklif etgan tadqiqot hamjamiyati modelida chuqur o‘quv tajribasi kognitiv ishtirok, ijtimoiy ishtirok va o‘qituvchi ishtirokining kesishuvida yuzaga kelishi asoslanadi [14]. Kognitiv ishtirok o‘quvchining muammoni anglashi, uni tadqiq etishi, yechimni asoslashi va amalda qo‘llashini; ijtimoiy ishtirok guruhda o‘zini erkin his qilishi, fikr almashishi va hamkorlik qilishini; o‘qituvchi ishtiroki esa o‘quv jarayonini loyihalash, yo‘naltirish va zarur paytda aralashishni bildiradi. Model onlayn muhitda o‘quvchining yolg‘izlanib qolishi eng jiddiy xatarlardan biri ekanini ko‘rsatadi. Shu sababli mustaqil ishlash kompetensiyasi ayni shu uch ishtirok muvozanatlashgan muhitda barqaror rivojlanadi.

Mustaqil ishlash kompetensiyasining tarkibiy tuzilishi. Yuqorida keltirilgan nazariy qoidalar tahlili mustaqil ishlash kompetensiyasini o‘zaro bog‘liq beshta komponentdan iborat yaxlit tizim sifatida tavsiflash imkonini beradi: motivatsion-qadriyatli, kognitiv-mazmuniy, operatsional-texnologik, axborot-raqamli va refleksiv-baholovchi. Ushbu komponentlar ierarxik emas, balki funksional bog‘liqlikda bo‘lib, biror komponentning rivojlanmay qolishi butun kompetensiyaning samarasini pasaytiradi. Masalan, yuqori motivatsiyaga ega, ammo rejalashtirish malakasi shakllanmagan o‘quvchi ko‘p vaqt sarflab ham kam natijaga erishadi; aksincha, texnik jihatdan tayyorgarlikli, biroq qiziqishi so‘ngan o‘quvchi topshiriqni rasmiy bajarish bilan cheklanadi.

Mustaqil ishlash kompetensiyasining rivojlanish darajalari. Nazariy tahlil kompetensiya rivojlanishining uch darajasini ajratish imkonini berdi. Reproduktiv-boshqariladigan darajada o‘quvchi topshiriqni faqat batafsil ko‘rsatma va tayyor namuna asosida bajaradi, maqsadni o‘zi qo‘ymaydi, xatolarini mustaqil aniqlay olmaydi va o‘qituvchining doimiy nazoratiga muhtoj bo‘ladi. Qisman mustaqil darajada u tanish tipdagi vazifalarni yordam so‘ramasdan hal qiladi, ish rejasini tuzadi va vaqtini taqsimlaydi, ammo notanish vaziyatda strategiyani o‘zgartirishda qiynaladi, o‘z-o‘zini baholashi esa ko‘pincha noadekvat bo‘ladi. To‘liq mustaqil-ijodiy darajada o‘quvchi muammoni o‘zi ilg‘aydi, maqsad va mezonlarni belgilaydi, resurslarni tanlaydi, faoliyatini vaqt bo‘yicha boshqaradi hamda natijani tanqidiy baholab, yangi mahsulot yaratadi.

Elektron ta’lim muhitining mustaqil ishlashga ta’siri: imkoniyatlar. Elektron ta’lim muhiti, avvalo, vaqt va joy erkinligini ta’minlaydi: o‘quvchi materialga o‘ziga qulay paytda murojaat qiladi, videodarsni to‘xtatib qayta ko‘radi, murakkab qismini bir necha marta takrorlaydi. Ikkinchidan, u individual sur’atni qo‘llab-quvvatlaydi va butun guruhga yagona o‘quv tezligini majburlamaydi. Uchinchidan, raqamli kutubxona, elektron o‘quv-uslubiy majmua, interaktiv simulyator va ochiq ta’lim resurslari hisobiga axborot bazasi sezilarli kengayadi. To‘rtinchidan, Moodle, Google Classroom va Microsoft Teams kabi tizimlar avtomatik test, izohli baholash hamda statistik hisobot orqali tezkor qayta aloqani ta’minlaydi, bu esa o‘quvchiga xatosini darhol anglash imkonini beradi. U.Sh. Begimqulov ta’lim jarayonlarini axborotlashtirish uning barcha bo‘g‘inlarini qamrab olgan tizimli boshqaruvni talab qilishini ta’kidlaydi [15]; bu qoida elektron muhit imkoniyatlari faqat maqsadli didaktik loyihalash sharoitida ro‘yobga chiqishini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, akademik litsey o‘quvchisining mustaqil ishlash kompetensiyasi — bu o‘quv-bilish vazifasini mustaqil qo‘yish, uni yechish yo‘lini tanlash, axborot bilan ishlash, faoliyatini tashkil etish hamda natijani baholab tuzatish imkonini beruvchi integrativ shaxsiy sifatdir. U mustaqil ishning tashkiliy shaklidan va mustaqil ta’lim jarayonidan o‘z mantiqiy darajasi bilan farqlanadi hamda kompetensiyaviy yondashuv tizimida “o‘rganishni o‘rganish” kompetensiyasining o‘zagini tashkil etadi. Uning tarkibida motivatsion-qadriyatli, kognitiv-mazmuniy, operatsional-texnologik, axborot-raqamli va refleksiv-baholovchi komponentlar ajratiladi, rivojlanishi esa reproduktiv-boshqariladigan, qisman mustaqil va to‘liq mustaqil-ijodiy darajalar orqali kechadi.

Mustaqil ishlash kompetensiyasining elektron ta’lim muhitidagi o‘ziga xosligi shundan iboratki, bu muhitda tashqi pedagogik nazorat kuchsizlanadi va uning o‘rnini o‘quvchining ichki o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmi egallashi lozim. Shu sababli elektron muhitda metakognitiv monitoring, vaqtni boshqarish, diqqatni saqlash va axborotning ishonchliligini baholash malakalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro‘yhati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. — 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son. — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. — 2019-yil 8-oktabr, PF-5847-son. — Toshkent, 2019.
3. Raven J. Competence in Modern Society: Its Identification, Development and Release. — Oxford: Oxford Psychologists Press, 1984.
4. Xutorskoy A.V. Klyuchevye kompetentsii kak komponent lichnostno orientirovannoy paradigmy obrazovaniya // Narodnoe obrazovanie. — 2003. — No. 2. — S. 58-64.
5. Zimnyaya I.A. Klyuchevye kompetentsii — novaya paradigma rezultata obrazovaniya // Vysshee obrazovanie segodnya. — 2003. — No. 5. — S. 34-42.
6. Zimmerman B.J. Self-Regulated Learning and Academic Achievement: An Overview // Educational Psychologist. — 1990. — Vol. 25, No. 1. — P. 3-17.
7. Knowles M.S. Self-Directed Learning: A Guide for Learners and Teachers. — New York: Association Press, 1975.
8. Vygotskiy L.S. Myshlenie i rech. — Moskva: Labirint, 1999.
9. Leontyev A.N. Deyatelnost. Soznanie. Lichnost. — Moskva: Politizdat, 1975.
10. Flavell J.H. Metacognition and Cognitive Monitoring: A New Area of Cognitive-Developmental Inquiry // American Psychologist. — 1979. — Vol. 34, No. 10. — P. 906-911.
11. Sweller J., Ayres P., Kalyuga S. Cognitive Load Theory. — New York: Springer, 2011.
12. Mayer R.E. Multimedia Learning. — 2nd ed. — New York: Cambridge University Press, 2009.
13. Moore M.G., Kearsley G. Distance Education: A Systems View of Online Learning. — 3rd ed. — Belmont: Wadsworth, 2012.
14. Garrison D.R., Anderson T., Archer W. Critical Inquiry in a Text-Based Environment: Computer Conferencing in Higher Education // The Internet and Higher Education. — 1999. — Vol. 2, No. 2-3. — P. 87-105.
15. Begimqulov U.Sh. Ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. — Toshkent: Fan, 2007.